

DAVLAT XIZMATLARINI PROFESSIONAL RIVOJLANISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNALOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Guliston davlat pedagogika instituti

Aniq va tabbiy fanlar kafedrasи

stajor-o'qituvchisi

Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li

Anotatsiya. Maqolada raqamli ta'lismi texnologiyalari davlat xizmatlarini professional rivojlanishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha ishlar olib borildi. Shuningdek xodimlarni bilimini yanada rivojlantirishga yordam beradigan zamonaviy dasturiy vostalar, mobil ilovalardan foydalanish haqida ma'lumotlar berildi.

Annotation. In the article, work was carried out on the formation of competence in the use of modern software tools in the professional development of digital educational technologies of state services. Information was also provided on the use of modern software and mobile applications that help employees to further develop their knowledge

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lismi, dasturiy vostalar, davlat xizmatlari, mobil ilovalar.

Key words: Digital education, software, public services, mobile applications.

Hukumat faoliyati samaradorligini oshirish uchun yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish g'oyasi yangi davlat menejmenti g'oyasi asosida olib borilayotgan ma'muriy faoliyatda islohot o'tkazish jarayonida, 1990 yillarda yuzaga keldi. Lekin "elektron hukumat" iborasi keyinroq (e-government), 1997 yili AQSh milliy ilmiy fondi tashabbusi bilan yuzaga keldi. Bu yerda asosiy urg'u davlatning ommaviy boshqaruv organi tizimiga berilgan.

Elektron hukumat — davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi.

Mamlakatimizda elektron hukumat tizimi O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida" va "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Amalga oshirilgan yirik loyihalar:

- [Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı \(my.gov.uz\)](http://my.gov.uz)
- [Ochiq ma'lumotlar portalı \(data.gov.uz\)](http://data.gov.uz)
- [Me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portalı \(regulation.gov.uz\)](http://regulation.gov.uz)
- [“Litsenziya” axborot tizimlari kompleksi \(license.gov.uz\)](http://license.gov.uz)
- [“Yagona darcha” markazlari faoliyatini avtomatlashtirish bo'yicha axborot tizim \(birdarcha.uz\)](http://birdarcha.uz)

“Elektron hukumat” quyidagi yo’nalishlarda ishlarni amalga oshirishni ko’zda tutadi:

- davlat boshqaruvida AKTdan foydalanish sohasida standartlar va takliflarni shakllantirish;
- hukumat axborot tizimi integratsiyasi va AKT asosida tashkilotlararo axborot almashinuvi samaradorligini ta’minalash;
- AKT yordamida aholi va davlat boshqaruv organlari orasidagi o’zaro bog’lanish samaradorligini ta’minalash;
- davlat boshqaruv organlari faoliyatida axborot boshqaruv tizimini joriy etish;
- davlat boshqaruv organlari faoliyatini ta’minalash uchun namunaviy dasturiy- texnik echimlarni topish;
- chora-tadbirlar dasturlarini amalga oshirish jarayonlarini boshqarish.

Axborot, dasturiy va elektron texnik vositalarning rivojlanishi davlat boshqaruv jarayonlari hamda tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Avvaliga bu qarorlar qabul qilish jarayonida ma'lumotlardan foydalanish, yig’ish va qayta ishlash samaradorligini oshirishda, keyinchalik barcha davlat boshqaruv tizimlarini tashkil etish usullari va institutlari transformatsiyasida namoyon bo’lmoqda. Umuman olganda, elektron hukumat rivojlanishi elektron biznes va elektron tijoratning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Davlat elektron vositalarga asoslanib, aholi va tijorat tashkilotlariga xizmat ko’rsatib keladi, hukumat tuzilmalari orasidagi o’zaro bog’lanishni takomillashtiradi. Bunda davlat faoliyatida umumiyl maqsadga erishiladi:

- davlat va tashkilotlar o’rtasida hamkorlik shakllari kengayadi hamda mustahkamlanadi;
- tashkilot va fuqarolarning ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanishiga erishiladi; - faoliyatning sharoitlari o’zgarishlariga tez va samarali moslashadi;
- aholi va tijorat tuzilmalariga xizmat ko’rsatish takomillashadi, xizmat ko’rsatish turlari oshib, narxi pasayadi;
- davlat boshqaruvida tashkilotlararo munosabatlarda samaradorlik oshadi;
- davlat boshqaruvida kadrlar samaradorligi oshadi;
- davlat boshqaruvida shaffoflik darajasi va davlat xizmatchilari mas’uliyati oshadi, xizmatchilar tashabbuslari rag’batlantiriladi.

Yagona portal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 30 dekabrdagi "Interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni hisobga olgan holda Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 378-sun qarori aosida tashkil etilgan hamda mazkur Qaror bilan qabul qilingan Nizomga ko'ra faoliyat yuritadi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal – my.gov.uz 2013 yilning 1 iyul kuni ishga tushirilgan bo'lib, Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida, shu jumladan "yagona darcha" rejimida faoliyat ko'rsatadi.

Yagona portal davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining maqsadi fuqarolarga interaktiv davlat xizmatlarin ko'rsatishdir. Yagona portal zamonaviy texnologiya yordamida foydalanuvchining interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyat larini kengaytirish uchun mo'ljallangan.

Yagona portaldan 4 xil ro'yxatdan o'tish usuli mavjud:

1. SMS tasdiqlash orqali ya'ni Yagona portaldan ro'yxatdan o'tiladi;
2. ID.uz – Yagona identifikatsiya tizimidan ro'yxatdan o'tiladi;
3. Elektron raqamli imzo orqali;
4. UzCARD yordamida.

1-rasm

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq hududlarda raqamli transformatsiya holatini baholash maqsadida hududlarni raqamli rivojlantirish darajasini reytingli baholash metodikasi ishlab chiqildi va bu bilan hududlarda raqamlashtirish holatini diagnostika qilish imkoniyati yaratildi.

Reytingli baholash metodikasida Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) tomonidan dunyo davlatlarida axborot texnologiyalari rivojlanish va elektron hukumatni joriy etishni baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar qabul qilindi.

Reytingli baholash tartibi **4 ta ustuvor yo'nalishlardan** iborat:

- "**Raqamli infratuzilma**" – aholi punktlarining Internet, mobil aloqa, "Wi-Fi" nuqtalari va boshqalar bilan qamrab olinganligi baholanadi;

- “**Raqamli iqtisodiyot**” – elektron schet-fakturadan va onlayn nazorat-kassa mashinalaridan samarali foydalanish, mahalliy IT-xizmatlar bozori holati, elektr va tabiiy gaz iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va boshqalar baholanadi.
- “**Ijtimoiy sohani raqamlashtirish**” – ijtimoiy muassasalar (bolalar bog‘chasi, maktablar, poliklinikalar)da Internetdan foydalanish holatini, hamda ta’lim va boshqa tizim hamda dasturiy mahsulotlarni joriy etish holatini baholash.
- “**Raqamli ta’lim**” – maktablarni yo‘nalish bo‘yicha diplomga ega informatika o‘qituvchilari bilan hamda o‘quvchilarining “Bir million dasturchi” dasturi bo‘yicha qamrab olinganligi, aholining IT-sektorida bandligi, IT-o‘quv markazlarining va boshqalar.

Davlat xizmatlarini professional rivojlanishdagi web saytlar, mobil ilovalar va dasturiy mahsulotlar o’rni va ahamiyati juda katta. Bunday dasturiy vositalar fuqorolarni vaqtini tejashta, turli xil to’siqlarga uchramaslikga, shaffoflikni yanada oshirishga va karrupsiyani oldini olishga hizmat qiladi. Davlat xizmatlarini professional rivojlanishda hodimlarni ushbu web sahifadan foydalanishda ta’lim olishini to‘g‘ri shakillantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to’g’risida”gi PF-4702-son farmoni. [Elektron resurs:] <https://lex.uz/acts/2562753>
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat elektron xizmatlari ko‘rsatish sifatini baholash metodikasini tasdiqlash to’g’risida” gi № 353-son qarori. [Elektron resurs:] <https://lex.uz/docs/3049873>
3. Hakimov M.X., Gaynazarov S.M. Berilganlar bazasini boshqarish tizimlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 648 b.
4. Ermonov Sh.I. O‘quvchilarda mobil ilovalar yaratish ko’nikmalarini shakllantirish // JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2022. – T. 5. – №. 3. – C. 24-27.
5. Ermonov Sh.I., Xakimova F.X. O‘qituvchilar zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish // Научный Фокус. – 2023. – T. 1. – №. 8. – C. 661-664.